O‘QUVCHILARDA TA’LIM NATIJALARI (LEAR-NING OUTCOMES) ASOSIDA TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Narbayev Alisher Erkinjon o‘g‘li, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi, Samarqand viloyat direktori
e-mail: alisher.narbayev@icloud.com

Annotatsiya: Maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida kasbiy ta’lim texnikum va kollej o‘quvchilarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning zaruriyati, uning dolzarbligini belgilovchi, ijtimoiy omillar o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish komponentlari, mezonlari va ko‘rsatkichlari hususida aniq fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik, o‘quvchi, dual ta’lim, tadbirkorlik ko‘nikmalari va mehanizimlari, komponent, mezon, daraja, kompetensiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ РЕЗУЛЬТАТОВ ОБУЧЕНИЯ.

Аннотация: В статье рассматриваются необходимость и актуальность формирования предпринимательских навыков у обучающихся профессионально-технических училищ и колледжей в условиях рыночной экономики, а также анализируются соответствующие социальные факторы, компоненты, критерии и показатели развития данных навыков.

Ключевые слова: рыночная экономика, предпринимательство, студент, дуальное образование, предпринимательские навыки и механизмы, компонент, критерий, уровень, компетенция.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING ENTREPRENEURIAL SKILLS IN STUDENTS BASED ON LEARNING OUTCOMES.

Abstract: The article discusses the necessity and relevance of developing entrepreneurial skills among students of vocational technical schools and colleges within the context of a market economy; it also examines the social factors involved, as well as the components, criteria, and indicators for developing these skills.

Keywords: Market economy, entrepreneurship, student, dual education, entrepreneurial skills and mechanisms, component, criterion, level, competence.

Kirish. Hozirgi 2026-yilda Kasbiy ta’limda bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘quvchilarni hayotiy faoliyatga tayyorlashda, ularda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishni davr taqozo etmoqda. Mazkur vazifaning dolzarbligini quyidagi ijtimoiy aniq reallikdagi omillar orqali asoslash mumkin:

1) Tadbirkorlik nufuzi, uning istiqbolli rejali rivojlanishining o‘sib borishi;

2) Kasbiy ta’lim o‘quvchilarida xo‘jalik yuritishning innovatsion yondashuv asosida shakllariga qiziqishning namoyon bo‘lishi;

Tadqiqot natijalarini kollej texnikum umuman kasbiy ta’lim o‘quvchilarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, eng avvalo ularda tashabbuskorlik sifatlarini uyg‘otish kerak bulsa, tarkib toptirish bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Bu esa zamonaviy ta’lim sharoitida texnikum va kollej va kasb-hunar o‘quvchilarini tadbirkorlikka yo‘naltirish uchun ularda tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirish, ilmiy asoslangan loyihalarni ularga tijoratlashtirish orqali kreativ yondashuvni natijadorligi real namoyish qilishda ko‘rinadi. Ikkinchi bir jihati texnikum, kollej va kasbiy ta’limdagi o‘quvchilarning barchasi ham kelajakda tadbirkor sifatida faoliyat yuritmasligi mumkinligi, biroq tadbirkorlik ko‘nikmalarini egallashi zarurligini anglatadi. Bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri dual ta’lim asosida keyingi ishlarni tashkil qilishni belgilab beradi. Mazkur sifatning ingliz tilidagi semantik tahlili ikkita ma’noni ifoda etadi: tadbirkorlik va tashabbuskorlik. Bu esa ikkita tushuncha o‘zaro bir-biri bilan aloqadorligini anglatadi.

Metodologiya F.Fon Xayekning “Tadbirkorlik va ishbilarmonlik shaxs xususiyatlaridir”, degan fikri ham tasdiqlaydi. Biroq hamma topqir, tashabbuskor kishilar ham psixologik xususiyatiga ko‘ra tadbirkor bo‘lib faoliyat yuritavermaydi. Bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin: Tashabbuskor o‘quvchilarda, xilma-xil faoliyat turlarida bu xususiyatini namoyon etishi mumkin, biznes sohasi bilan shug‘ullanmasligi mumkin. Shu bilan birga, o‘quvchilarda uddaburonlik, tashabbuskorlik muvaffaqiyatli tadbirkorlik faoliyati garovi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu esa kasbiy ta’lim o‘quvchilarida bir vaqtda ta’lim hamda qo‘shimcha kasb va daromad manbai ham bor degani. Boshqa tomondan, tashabbuskor shaxslar nafaqat biznes sohasida, balki fan, san’at, madaniyat, siyosat va kasbiy-tadbirkorlik bilan shug‘ullanmaydigan kishilarda ham namoyon bo‘ladi. A.M.Omarovning fikricha, o‘quvchilarda tashabbuskorlik - egiluvchan, keng va istiqbolni ko‘zlab fikrlay olish, g‘ayratli, qarorlar qabul qilishda qat’iylikni namoyish etish, tavakkal qila olish demakdir. Psixolog R.Xizrachning qayd etishicha, tashabbuskorlik, eng avvalo, fikrning mustaqilligi, nostandartligi, o‘z taqdiriga egalik hissi, tavakkalchilikka qobiliyatlilik bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot maqsadi Fanda shaxs rivojining keng tarqalgan uch sohasi (kognitiv, affektiv, xulq-atvorga doir)ga asoslangan holda o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning quyidagi tuzilmasi aniqlashtirildi (1-rasm).

O‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish tuzilmasi.

TADBIRKORLIK SALOHIYATI



Natijalar O‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalari tuzilmasiga doir hulosalarimizni tasdiqlash uchun Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarining kasbiy ta’lim o‘quvchilari o‘rtasida tadqiqot o‘tkazildi. So‘rov jarayonida 200 nafar o‘quvchi ishtiroki ta’minlandi. Ikkita savoldan iborat buldi:

1. “Tadbirkorlik” atamasi nimani anglatadi?
2. Tadbirkorlik uchun shaxsda qanday xususiyatlar bo‘lishi zarur?

1-savolga kasbiy ta’lim o‘quvchilarining 40 foizi tadbirkorlik faoliyat turi bo‘lib, tashabbuskor g‘oyalarni ilgari surish, tavakkalchilik asosida o‘z biznesini yuritish, yangi mahsulot yaratish, foyda va daromadga ega bo‘lish hamda qonuniy faoliyat yuritishdir, deb javob berishgan. 28 foiz o‘quvchilar biznes bilan shug‘ullanish, 27 foiz o‘quvchilar esa foyda olish va tavakalchilik deb hisoblashini keltirib o‘tishgan. 5 foiz o‘quvchilar aniq javob berishga qiynalishdi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil etish va tajriba-sinov ishlari asosida kollej texnikum o‘quvchilarida tadbirkorlik ko‘nikmalari rivojlanganligining uchta darajasi aniqlashtirildi. Ko‘rsatilgan tadbirkorlik ko‘nikmalari va darajalari hamda tadqiqotga aloqador manbalar asosida quyidagi mezonlar aniqlashtirildi: motivatsion, ijodiy va faoliyatga doir. Har bir mezonni amalga oshirish darajasini aniqlashda ko‘rsatkichlarning namoyon bo‘lish dinamikasiga asoslaniladi. Xususan – motivatsion mezonlar integrativ tavsifga ega bo‘lib, o‘zida tadbirkorlik faoliyatiga, boshqa kishilarga va o‘ziga nisbatan munosabatning o‘zgarishini aks ettiradi.

Mezonning namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari sifatida javobgarlik, matonat, kirishimlilik, sobitqadamlik xizmat qiladi.

Xulosa Ijodiy mezonlar g‘oyalarni ishlab chiqish, boshqalar ko‘ra olmagan foyda olish imkoniyatlarini qo‘lga kiritish qobiliyatini aks ettiradi. Ko‘rsatkichlari tashabbuskorlik, topqirlik va kreativlikning namoyon bo‘lish darajasi. Faoliyatga yo‘naltirilgan mezonlar oila va maktabning tadbirkorlik faoliyatiga maxsus-tashkiliy ishtirokini ifoda etib, ko‘rsatkichlari esa kasbiy ta’lim o‘quvchilarida mustaqillikning namoyon bo‘lishi, tashkilotchilik sifatlarining rivojlanganlik darajasi, tavakkalchilikka qobiliyatlilikdir. Shunday qilib, professional ta’lim o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish integrativ tavsifga ega bo‘lib, tashabbuskorlik xususiyatining yetakchi ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Kollej texnikum umuman kasbiy ta’lim o‘quvchilarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir shaxs xususiyatlarini aniqlashtirish orqali komponetlari va ularning mazmuni, darajalari va mezonlarini belgilay olishga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq so‘zi gazetasi Toshkent 2020. 8 b.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010. - 106-109 b.
3. Xizrich R., Piters M., Tadbirkorlikni qanday qilib o‘z biznesingizni boshlash va muvaffaqiyatga erishish mumkin. - Moskva: Progress-Unevers, 2017. - 87 b.
4. Muradova N.S. Tadbirkorlar tug'ilmaydi // Ta’lim va jamiyat. - 2003. - №3. - S. 104 – 107.